

“JAHOLATGA QARSHI MA’RIFAT” — UCH AVLOD UCHRASHUVIDA MUHIM MAVZU

Yangiobod tumani Madaniyat markazida “Uch avlod uchrashuvi” doirasida “Jaholatga qarshi ma’rifat” mavzusida ma’naviy-ma’rifiy davra suhbatlari tashkil etildi. Mazkur tadbir jamiyatda ma’naviy muhitni mustahkamlash, yoshlar ongini turli yot va zararli g’oyalardan himoya qilish hamda ularni ilm-ma’rifatga yo’naltirish maqsadida o’tkazildi.

Tadbirda nuroniyalar, tajribali ziyolilar, turli soha vakillari hamda faol va izlanuvchan yoshlar ishtirok etdilar. “Uch avlod uchrashuvi” formatida tashkil etilgan ushbu davra suhbatiga alohida mazmun bag’ishlab, avlodlar o’rtasida fikr va tajriba almashinuvi uchun keng imkoniyat yaratdi. Yoshi ulug’ insonlarning hayotiy tajribasi, ziyolilarning chuqur bilim va mulohazalari hamda yoshlarning yangicha qarashlari uyg’unlashib, mazmunli va samarali muloqot muhitini vujudga keltirdi.

Davra suhbatlari davomida jamiyatda ma’rifatning o’rni va ahamiyati keng muhokama qilindi. So’zga chiqqanlar jaholatning turli ko’rinishlari, uning salbiy oqibatlari hamda unga qarshi kurashishda ilm va ma’rifatning hal qiluvchi kuch ekanini alohida ta’kidladilar. Ayniqsa, bugungi globalashuv davrida yoshlarni turli yot g’oyalardan himoya qilish zarurligini ta’kidlab, bunda oilaning, ta’lim muassasalarining hamda jamoatchilikning o’rni beqiyos ekanini qayd etdilar. Shu bilan birga, yoshlarni kitobxonlikka jalb etish, ularning bo’sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ijtimoiy faolligini oshirish orqali ularni turli salbiy ta’sirlardan himoya qilish mumkinligi alohida urg’ulandi.

Suhbat davomida ma’naviy tarbiya masalalari ham keng yoritildi.

Xususan, milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, ajdodlar merosiga hurmat ruhida tarbiyalash, Vatanga sadoqat, kattalarga hurmat va kichiklarga izzat kabi insoniy fazilatlarini yoshlar ongiga singdirish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri sifatida e’tirof etildi.

Tadbir qatnashchilari tomonidan kitobxonlikni targ’ib etish masalasiga ham alohida e’tibor qaratildi. Zero, kitob inson tafakkurini boyituvchi, uning dunyoqarashini kengaytiruvchi eng muhim manba hisoblanadi. Kitob mutolaasi orqali yoshlar mustaqil fikrlashni o’rganadi, turli g’oyalarga nisbatan ongli yondashuv shakllanadi.

Mazkur davra suhbatlari davomida bildirilgan fikr-mulohazalar, taklif va tavsiyalar kelgusida amalga oshiriladigan ma’naviy-ma’rifiy ishlar uchun muhim asos bo’lib xizmat qilishi alohida ta’kidlandi. Eng muhimi, uch avlod vakillarining bir joyda jam bo’lib, ochiq va samimiy muloqot qilishi jamiyatda o’zaro hurmat, birdamlik va ma’naviy uyg’unlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa o’rniida aytish mumkinki, “Jaholatga qarshi ma’rifat” mavzusida o’tkazilgan ushbu davra suhbatlari yoshlar ongida sog’lom dunyoqarashni shakllantirish, ularni bilimli, ma’rifatli va vatanparvar insonlar etib tarbiyalash yo’lida muhim ahamiyat kasb etdi. Bu kabi tadbirlar kelajak avlodning ma’naviy barkamoliligini ta’minlashda, jamiyatda ma’rifat ustuvorligini qaror toptirishda muhim omil bo’lib xizmat qiladi.

SARMICH MFYDA “AYOLLAR SPORT OLIMPIADASI”

Yangiobod tumani Sarmich MFYda xotin-qizlar faoli Ostonaqulova Nafisa tashabbusi bilan “Ayollar sport olimpiadasi” tashkil etildi. Mazkur tadbir xotin-qizlar o’rtasida sog’lom turmush tarzini keng targ’ib etish, ularning jismoniy faolligini oshirish, sportga bo’lgan qiziqishini kuchaytirish hamda mahallada sog’lom muhitni shakllantirishga qaratilgan muhim tashabbus sifatida alohida e’tiborga loyiq bo’ldi.

Tadbirda turli yosh toifasiga mansub xotin-qizlar faol ishtirok etib, o’zlarining jismoniy tayyorgarligi, chaqqonligi va irodasini namoyon etdilar. Musobaqalar bir nechta sport yo’nalishlari bo’yicha tashkil etilib, har bir bellashuv o’ziga xos qiziqarli va murossasiz ruhda kechdi. Ishtirokchilar har bir shartda bor imkoniyatlarini ishga solib, g’alaba sari intildilar.

“Ayollar sport olimpiadasi” nafaqat sport musobaqasi, balki xotin-qizlarning jamiyatdagi o’rni va faolligini yana bir bor namoyon etuvchi muhim ijtimoiy tadbirga aylandi. Unda qatnashgan ayollar o’z salomatligi, jismoniy rivoji va faol turmush tarziga bo’lgan e’tiborini amalda ko’rsatib, boshqalarga ham ijobiy o’rnak bo’ldilar.

Tadbir davomida hukm surgan ko’tarinki kayfiyat, samimiy va do’stona muhit, ishtirokchilar o’rtasidagi o’zaro hurmat va qo’llab-quvvatlash barchaga katta taassurot qoldirdi. Har bir ishtirokchi o’zining faolligi, qat’iyati va sportga bo’lgan mehrini namoyish etib, tadbirga alohida ruh bag’ishladi.

Ayniqsa, mahalla miqyosida bunday sport tadbirlarining o’tkazilishi xotin-qizlar o’rtasida hamjihatlikni mustahkamlash, ularni bir maqsad yo’lida birlashtirish hamda ijtimoiy faolligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu orqali sog’lom turmush tarzi nafaqat shaxsiy ehtiyoj, balki umumiy qadriyat sifatida shakllanib boradi.

Tadbir yakunida faol ishtirok etgan xotin-qizlar munosib rag’batlantirilib, ularning sa’y-harakatlari e’tirof etildi. Bu esa kelgusida ham bunday sport tadbirlarida yanada faol ishtirok etish, o’z ustida ishlash va yangi natijalarga erishish uchun kuchli motivatsiya bo’lib xizmat qiladi.

Sarmich MFYda o’tkazilgan “Ayollar sport olimpiadasi” xotin-qizlar salomatligini mustahkamlash, ularning jismoniy va ijtimoiy faolligini oshirish, sport orqali sog’lom va baxtli hayot tarzini targ’ib etishda muhim qadamlardan biri bo’ldi. Bu kabi tashabbuslarning izchil davom ettirilishi esa jamiyatda sog’lom muhitni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

YANGIOBOD OVOZI

YANGIOBOD TUMAN HOKIMLIGI GAZETASI

MUASSIS: YANGIOBOD TUMAN HOKIMLIGI

Bosh muharrir: A. MUHAMMADIYEV

Gazeta Jizzax viloyati matbuot va axborot boshqarmasida 06-041 raqami bilan ro’yhatdan o’tgan.

MANZILIMIZ: Yangiobod tumani, Yangiobod shaharchasi, Mustaqillik ko’chasi 1-uy.

TAHRIR HAY’ATI: Ibrohim QARSHIBOYEV, Azizbek NISHIONOV, Valijon XASANOV, Beknazar TOSHOYEV, Olimjon BEGMATOV, Fozil HAMROYEV

TELEFON: +998 72 542-11-31

NASHR UCHUN MAS’UL: A. MUHAMMADIYEV

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terilib, sahifalandi. Qog’oz bichimi A-3. Gazeta «RASTR PLYUS PRINT» MCHJ da ofset usulida 200 nusxada chop etildi.

Korxona manzili: Jizzax shaxri, Sayiljoy ko’chasi, 4-uy. Bosishga ruhsat etildi 14.04.2026-yil BUYURTMA №

BUYUK KELAJAKNI BIRGA QURAMIZ

YANGIOBOD OVOZI

YANGIOBOD TUMANI HOKIMLIGINING IJTIMOY-SIYOSIY, MA’RIFIY GAZETASI

5-son (66) 15-aprel 2026-yil, seshanba	Ijtimoiy-siyosiy, ma’rifiy gazeta	Bahosi erkin narxda	Gazeta 2019-yil yanvardan chiqa boshladi
--	-----------------------------------	---------------------	--

YANGIOBODDA “BESH TASHABBUS PARALIMPIADASI” YUQORI RUHDA YAKUNLANDI

Yangiobod tumanida aholi, ayniqsa jismoniy imkoniyati cheklangan fuqarolarni qo’llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faolligini oshirish hamda sog’lom turmush tarzini keng targ’ib etishga qaratilgan muhim sport tadbiri — “Besh tashabbus paralimpiadasi” yuqori saviyada tashkil etildi. Mazkur musobaqa “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi Yangiobod tuman bo’linmasi hamda tuman Sport maktabi hamkorligida

jismoniy imkoniyati, matonati, kuchi va qat’iyatini sinovdan o’tkazib, tomoshabinlar qalbidagi katta taassurot qoldirdi. Ayniqsa, ularning g’alabaga bo’lgan intilishi, irodasi va sinovlarga bardosh berish qobiliyati barchaga o’rnak bo’ldi.

Tadbir davomida hukm surgan ko’tarinki kayfiyat, do’stona va samimiy muhit, ishtirokchilar o’rtasidagi o’zaro hurmat va qo’llab-quvvatlash sportning asl mohiyatini yana bir bor namoyon etdi. Har bir bellashuv qizg’in va murossasiz kechgan bo’lsa-da, unda insoniylik va birdamlik ustuvor bo’lib qoldi.

Mazkur paralimpiada har bir ishtirokchi uchun katta tajriba maktabi bo’ldi. Ular bu jarayonda nafaqat sport natijalariga erishdilar, balki o’zlariga bo’lgan ishonchni mustahkamlab, yangi marralar sari intilish uchun katta ruhiy motivatsiya oldilar. Ayniqsa, yoshlar uchun bu kabi tadbirlar o’z salohiyatini namoyon etish, iqtidorini rivojlantirish hamda sog’lom turmush tarziga amal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shubhasiz, bunday e’tibor va e’tirof har bir ishtirokchi qalbidagi yanada katta marralarni zabt etish ishtiyoqini uyg’otadi. “Besh tashabbus paralimpiadasi” esa Yangiobod tumanida nafaqat sport rivojiga, balki inson qadri, teng imkoniyat va ijtimoiy birdamlikni mustahkamlashga xizmat qilayotgan muhim tadbirlardan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Musobaqa yakunida g’olib va sovrindorlar tantanali ravishda taqdirlandi. Ularni Yangiobod tumani hokimi Ibrohim Qarshiboyev shaxsan mukofotlab, ularning erishgan yutuqlarini yuqori baholadi. O’z nuqtida hokim bu kabi tadbirlar jamiyatda mehr-oqibat, e’tibor va g’amxo’rlik muhitini kuchaytirishda muhim o’rin tutishini alohida ta’kidladi.

Kelgusida ham bu kabi tashabbuslarning izchil davom ettirilishi jamiyatimizda sog’lom turmush tarzini keng yoyish, barcha qatlam vakillari uchun teng imkoniyatlar yaratish hamda inson qadri ustuvorligini ta’minlashda muhim omil bo’lib xizmat qiladi.

o’tkazilib, o’ziga xos bayramona muhitda kechdi.

Tadbirdan ko’zlangan asosiy maqsad — jismoniy imkoniyati cheklangan fuqarolarning sportga bo’lgan qiziqishini oshirish, ularning ijtimoiy faolligini rag’batlantirish, o’z kuchiga bo’lgan ishonchini mustahkamlash hamda jamiyatda inklyuziv muhitni yanada rivojlantirishdan iborat bo’ldi. Shu bois ushbu musobaqa nafaqat sport bellashuvi, balki insoniylik, hamjihatlik va bag’rikenglikning yorqin ifodasiga aylandi.

Musobaqalar davomida ishtirokchilar bir qator sport yo’nalishlari bo’yicha o’z mahoratlarini namoyish etdilar. Har bir qatnashchi o’zining

KITOBXONLIK HAFTALIGIGA START BERILDI

Yangiobod tumanida ma’naviy-ma’rifiy hayotda muhim o’rin tutuvchi, kitobxonlik madaniyatini keng targ’ib etishga qaratilgan yirik tadbir — “Kitobsevar millat” shiori ostidagi VI Respublika kitobxonlik haftaligiga tantanali ravishda start berildi. Ushbu haftalik yurtimizda kitobga bo’lgan mehrni yanada oshirish, ayniqsa yoshlar o’rtasida mutolaa madaniyatini rivojlantirish, ularni bilim va tafakkurga yo’naltirish maqsadida tashkil etildi.

Mazkur tadbirda Xalq deputatlari Yangiobod tumani Kengashi raisi X. Tilakov, tuman hokimi o’rinbosari A. Nishonov, O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi B. Toshboyev hamda boshqa faol jamoatchilik vakillari, soha mutaxassislari va eng muhimi, kitobsevar o’quvchi-yoshlar faol ishtirok etdilar. Tadbir ishtirokchilari tomonidan kitobning inson hayotidagi beqiyos o’rni, uning tafakkur va dunyoqarashni

shakllantirishdagi ahamiyati alohida ta’kidlab o’tildi.

Yangiobod tumani axborot-kutubxona markazi tomonidan yuqori saviyada tashkil etilgan ushbu haftalikning ochilish marosimi ko’tarinki ruhda, mazmunli chiqishlar va qiziqarli dasturlar bilan boyitildi. Tadbir davomida kitobxonlikni keng targ’ib qilish, yoshlar orasida mutolaa madaniyatini mustahkamlash, ularni badiiy va ilmiy adabiyotlarga oshno etish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Shuningdek, haftalik doirasida turli ma’naviy-ma’rifiy uchrashuvlar, adabiy kechalar, kitob ko’rgazmalari, ijodiy suhbatlar va tanlovlar o’tkazilishi rejalashtirilgani alohida qayd etildi. Bu kabi tadbirlar yoshlarning bo’sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularni zararli odatlardan yiroq tutish hamda kitobga mehr uyg’otishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadbirda so’zga chiqqanlar bugungi kunda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biri ekanini ta’kidlab, har bir oila va ta’lim muassasasida kitob mutolaasiga alohida e’tibor qaratish zarurligini qayd etdilar. Zero, kitob — insonni komillikka yetaklovchi, uning ma’naviy olamini boyituvchi eng muhim manbadir.

Kitobxonlik haftaligi nafaqat o’quvchi-yoshlar, balki keng jamoatchilikni ham qamrab olishi, har bir inson qalbidagi kitobga bo’lgan mehrni yanada mustahkamlashi bilan ahamiyatlidir. Ayniqsa, yosh avlodni intellektual jihatdan barkamol etib tarbiyalashda bunday tashabbuslarning o’rni beqiyosdir.

Jamiyat va davlatning qay darajada xalqparvar hamda adolatli ekani uning xotin-qizlarga munosabati va g'amxo'rligida ko'rinadi. Xotin-qizlarning qonuniy huquq va manfaatlarini ta'minlash, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish yurtimizda ustuvor vazifalardan biri sanaladi.

O'zbekiston qonunchiligida ayollarga qanday imtiyoz va yengilliklar belgilangan.

Xotin-qizlarga kontrakt puli to'lab beriladi

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 585-son qaroriga muvofiq, har yili bazaviy to'lov-kontrakt asosida davlat oliy ta'lim muassasasining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga qabul qilingan, ijtimoiy ehtiyojmand oila vakillari bo'lgan talaba xotin-qizlarni Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari hisobidan o'qitish tartibi joriy etilgan.

Ular har yili o'zlarining hududlaridan o'qishga kirgan 40 nafardan, ikkinchi va undan yuqori bosqichlarda tahsil olayotgan 110 nafar, jami 150 nafar xotin-qiz uchun mahalliy byudjetning qo'shimcha manbalari hisobidan bazaviy to'lov-kontrakt summasini to'rt o'quv yili yakuniga qadar to'lab beradi.

Qizlar ta'limi moliyaviy qo'llab-quvvatlanadi

Prezidentning "Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida xotin-qizlarning ta'lim olishlarini qo'llab-quvvatlashga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, oliy hamda o'rta maxsus va professional ta'limda tahsil oluvchi xotin-qizlarga 7 yilga 14 foizlik ta'lim kreditlari ajratiladi. Bunda foiz stavkalarini Moliya vazirligining jamg'armasi qoplab beradi. Xotin-qizlar esa asosiy qarzni o'qishni tamomlagach, 7 yil davomida to'laydi.

Shuningdek, davlat oliy ta'lim muassasalarining magistratura bosqichida o'qiyotgan barcha xotin-qizlarning kontrakt to'lovlarini qaytarish shartisiz qoplash maqsadida, davlat byudjetidan har yili kamida 200 milliard so'm moliyalashtiriladi. Magistraturada tahsil olayotgan talabgor xotin-qizlar kontrakt to'lovini qoplash maqsadida o'z universitetining rektori nomiga yilning 15-sentabrgacha ariza bilan murojaat etishlari kerak.

5 yillik staj orqali talaba bo'lish imkoniyati

Mutaxassisligi bo'yicha 5 yillik stajiga ega, ammo oliy ma'lumotga ega bo'lmagan xotin-qizlar davlat tomonidan ajratilgan 500 ta kvota orqali to'lov-kontrakt asosida talaba bo'lishlari mumkin. Talabgorlar Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasining tavsiyanomasi asosida o'qishga qabul qilinadi.

Ushbu tavsiyanoma talabgorlar o'rta-maxsus yoki professional ta'lim bo'yicha mutaxassislikka ega bo'lishi; ta'lim olgunga qadar oliy ta'lim olmaganligi yoki olmayotganligi; o'rta maxsus yoki professional ta'lim bo'yicha 5 yillik mehnat stajiga ega bo'lishi lozim.

OTMga kirishda imtiyoz

Ehtiyojmand oilalardagi xotin-qizlarga oliy ta'lim muassasalariga qo'shimcha davlat granti asosidagi qabul ko'rsatkichlari doirasida tanlovda ishtirok etish uchun tavsiyanoma beriladi. Tavsiyonama quyidagi mezonlarning biriga mos tushadigan nomzodlarga beriladi:

- kam ta'minlangan oilalardagi xotin-qizlar;
- to'liqsiz oilada tarbiyalanayotgan, ya'ni otasi yoki onasi yoxud ularning ikkalasi ham vafot etgan ijtimoiy himoyaga muhtoj qizlar;
- turmush o'rtog'i vafot etgan, voyaga yetmagan farzandini yolg'iz tarbiyalayotgan ijtimoiy himoyaga muhtoj ayollar;
- nogironligi bo'lgan farzandi bor ehtiyojmand oilalardagi xotin-qizlar;
- ikki va undan ortiq farzandlarini tarbiyalayotgan, boshqa qarindoshlaridan alohida (ijarada) yashayotgan ijtimoiy himoyaga muhtoj yolg'iz ayollarning qiz farzandlari;
- ota-onalaridan biri yoki har ikkisi ham birinchi yoki ikkinchi guruh nogironi bo'lgan ehtiyojmand oilalardagi xotin-qizlar.

Kasb o'rganish xarajatlarini davlat to'laydi

Xotin-qizlar nodavlat ta'lim tashkilotlarida kasb-hunarga va tadbirkorlikka o'qiganda qilgan xarajatlarning 70 foizi, biroq har bir bitiruvchiga 1 million so'mdan ortiq bo'lmagan xarajatlar davlat tomonidan qoplab beriladi.

Homilador ayolni ishga qabul qilish

Ayol homiladorligi yoki yosh bola parvarish qilayotganini bila turib, uni ishga olishdan g'ayriqonuniy ravishda bosh tortish yoki ishdan bo'shatish:

- BHMning 25 baravarigacha (6 million 750 ming so'mgacha) jarima;
- yoki 3 yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish;
- yoxud 3 yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

DMTTlarga imtiyozli qabul

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 319-son qaroriga ko'ra, "Ayollar daftari"ga kiritilgan ijtimoiy himoyaga muhtoj yolg'iz ayollarning bolalari davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga ustunlik bilan qabul qilinish huquqiga ega.

2 yoshga to'lmagan farzandi bor onalarga qo'shimcha tanaffus

2 yoshga to'lmagan bolali ayollarga bolani ovqatlantirish uchun (o'ziga berilgan dam olish va ovqatlanish uchun beriladigan tanaffusdan tashqari) kamida har 3 soatda bir marta har biri 30 minutdan kam bo'lmagan tanaffus beriladi.

2 yoshga to'lmagan ikki va undan ko'p bolali ayollarga tanaffusning muddati kamida 1 soat qilib belgilanadi. Mazkur tanaffuslar uchun ish haqi kamaytirilmaydi.

Bolali ayolning xohishiga ko'ra tanaffuslar dam olish va ovqatlanish uchun belgilangan tanaffusga qo'shib berilishi yoki umumlashtirilib, ish kunining boshiga yoki oxiriga ko'chirilib, ish kuni shunga yarasha qisqartirilishi mumkin.

3 yoshga to'lmagan farzandi bor ayollarga qisqartirilgan ish soati

Uch yoshga to'lmagan bolaning onasiga haftasiga o'ttiz besh soatdan oshmaydigan ish vaqti davomiyligi belgilanadi. Ish vaqtining qisqartirilgan davomiyligida ishlayotgan ayollarga haq to'lash har kungi to'liq ish davomiyligida ishlaydigan xodimlar uchun belgilangan miqdorda amalga oshiriladi.

3 ish kunidan kam bo'lmagan qo'shimcha ta'til

12 yoshga to'lmagan ikki va undan ko'p bolasi yoki 16 yoshga to'lmagan nogiron bolasi bor ayollarga har yili 3 ish kunidan kam bo'lmagan haq to'lanadigan qo'shimcha ta'til beriladi. Shuningdek, ularning xohishiga ko'ra har yili 14 kalendar kundan kam bo'lmagan ish haqi saqlanmagan ta'til beriladi.

Bunday ta'til yillik ta'tilga qo'shib berilishi yoki alohida foydalanilishi mumkin.

Davolanish uchun bepul order

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-apreldagi 250-son qaroriga ko'ra, "Ayollar daftari"ga kiritilgan xotin-qizlarning sog'lig'i holati og'ir bo'lganda viloyat ixtisoslashtirilgan davolash-profilaktika muassasalariga yoki respublika ixtisoslashtirilgan markazlariga davolanish uchun bepul order ajratiladi.

33 million so'mgacha kredit

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-martdagi PQ-5020-son qarori bilan xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasi hisobidan 3 yilgacha va 6 oygacha imtiyozli davr bilan yillik 14 foiz stavkada 33 million so'mgacha kreditlar beriladi. Buning uchun ular quyidagi dasturlardan birini muvaffaqiyatli tugatgan bo'lishi kerak:

Og'ir ijtimoiy ahvoldagi xotin-qizlarga imtiyozli uy-joylar beriladi

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 12-apreldagi 285-son qaroriga muvofiq, uy-joyga muhtoj xotin-qizlarga beriladigan arzon uy-joylar to'lovining:

10 foizi Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasi, talabgor ishlayotgan tashkilot va boshqa manbalar hisobiga (boshlang'ich badal sifatida);

90 foizi banklarning imtiyozli kreditlari hisobiga qoplanadi.

Ayrim ayollar 53 yoshda pensiyaga chiqishi mumkin

O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 3-sentabrdagi 938-XII-son qonuniga muvofiq, texnologiyadagi, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishdagi o'zgarishlar, xodimlar soni (shtati) yoki ish xususiyatining o'zgarishiga olib kelgan ishlar hajmining qisqargani yoxud korxonaning tugatilgani munosabati bilan ishdan ozod etilgan va ishsiz deb e'tirof etilgan ayollar 53 yoshga to'lganda va ish staji kamida 20 yil bo'lganda pensiya olish huquqiga ega bo'ladi.

Jahongir Maxmutbaevich Abduxoliqov
Yangiobod tuman adliya bo'limi boshlig'i

DEKRETGA CHIQMASDAN ISHLASH MUMKINMI?

Ko'pchilik homilador ayollar dekretga chiqmay ishlash haqida ish beruvchiga murojaat qilib ish beruvchini va korxona kadrlar bo'limini noqulay ahvolga solib qo'yadi. Chunki ayollar ham ishlab ish haqimni olaman, ham dekret pulini olaman degan hayolda bo'lishadi. Aslida ayollar



dekretga chiqmay ishlashga Mehnat Kodeksida nima deyiladi?

M e h n a t kodeksining 404-moddasiga asosan a y o l g a t u g ' r u q q a c h a yetmish kalendar k u n h a m d a tug'ruqdan keyin ellik olti kalendar kun (tug'ish qiyin kechgan yoxud

ikki yoki undan ortiq bola tug'ilgan taqdirda yetmish kalendar kun) homiladorlik va tug'ish ta'tili berilib, qonunchilikda belgilangan, lekin o'rtacha oylik ish haqining yetmish besh foizidan kam bo'lmagan miqdorda nafaqa to'lanadi.

Mehnatga layoqatsizlik varaqalarini berish tartibi to'g'risidagi 2667-sonli Yo'riqnomaning 27-bandiga asosan homiladorlik va tug'ish bo'yicha mehnatga layoqatsizlik varaqasi homiladorlikning o'ttizinchi haftasidan

boshlab hududiy ambulator-poliklinikalarning, akusher-ginekolog (umumiy amaliyot shifokori) tomonidan bosh shifokor o'rinbosari bilan birgalikda bir yo'la bir yuz yigirma olti kalendar kuniga beriladi.

Tug'ish qiyin kechgan yoki ikki va undan ortiq bola tug'ilgan hollarda homiladorlik va tug'ish ta'tilini uzaytirish uchun tug'ruq muassasasi tomonidan yana o'n to'rt kalendar kuniga mehnatga layoqatsizlik varaqasi beriladi.

Ya'ni mazkur yo'riqnoma e'tibor qaratilsa, ayolga homilaning 30 haftasidan mehnatga layoqatsizlik varaqasi beriladi deyilmoqda. Bu degani ayol o'ttizinchi haftadan keyin mehnatga layoqatsiz bo'ladi degani bunday xodimlarga ishlash mumkin emas. Ya'ni shuni ayib o'tish kerak agar ayolning homilasi o'ttizinchi haftadan keyin nobud bo'lganda va yoki farzand o'lik tug'ilganda yoki boshqa sabablar bilan vafot etgan taqdirda ham ayol 126 kalendar kunlik ta'tilni to'liq tugatgandan so'ng ishga chiqishga haqli. Chunki, Mehnat Kodeksining 404-moddasi 2-qismiga asosan homiladorlik va tug'ish ta'tili ayolga jamlangan holda hisoblab chiqarilib, tug'ruqqacha haqiqatda foydalanilgan kunlar sonidan qat'i nazar, to'liq beriladi.

Homiladorlikning o'ttizinchi haftasidan ilgari tug'ish holatlarida mehnatga layoqatsizlik varaqasi tug'ruq muassasasi tomonidan bola tug'ilgan kundan boshlab quyidagi muddatlarga beriladi:

- bola tirik tug'ilganda — bir yuz yigirma olti kalendar kunga;
- bola o'lik tug'ilgan yoki tug'ruq muassasasidan chiqqunga qadar nobud bo'lganda — yetmish kalendar kunga.

Jahongir Maxmutbaevich Abduxoliqov
Yangiobod tuman adliya bo'limi boshlig'i

FUQAROLAR VA TADBIRKORLIK SUB'EKTLARINING UY-JOY BILAN BOG'LIQ
MULK HUQUQI KAFOLATLANISHI TA'MINLANGAN

Ma'lumki, so'nggi yillarda shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish, aholiga munosib turmush sharoitini yaratish, hududlarni kompleks rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlari va investitsiya loyihalarining samarali amalga oshirilishi doirasida fuqarolar va tadbirkorlik sub'ektlariga tegishli bo'lgan bino va inshootlar joylashgan yer uchastkalari olib qo'yilishi munosabati bilan



O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 47-moddasida ham har kim uy-joyli bo'lish huquqiga egaligi, hech kim sudning qarorisiz va qonunga zid tarzda uy-joyidan mahrum etilishi mumkin emasligi, uy-joyidan mahrum etilgan mulkdorga uy-joyning qiymati hamda u ko'rgan zararlarning o'rni qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda oldindan hamda teng qiymatda qoplanishi ta'minlanishi, davlat uy-joy qurilishini rag'batlantiradi va uy-joyga bo'lgan huquqning amalga oshirilishi uchun shart-sharoitlar yaratishi, aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarini uy-joy bilan ta'minlash tartibi qonun bilan belgilanishida o'z aksini topdi.

Xo'sh, endilikda uy-joyidan mahrum etilgan mulkdorga uy-joyning va ko'rgan zararlarning o'rni qanday qoplanishi qanday bo'ladigan bo'ldi va buni amalga oshirish mexanizimi qanaqa?

Agar, O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kodeksining 27-moddasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, yer uchastkalari davlat yoki jamiyat ehtiyojlari uchun olib qo'yilishi munosabati bilan fuqarolar mulkida bo'lgan uylar (kvartiralar) buzilgan taqdirda, mulkdorlarga ularning tanlovi bo'yicha va taraflar kelishuviga ko'ra, uy-joy

maydonining ijtimoiy normasidan kam bo'lmagan sahndagi, barcha qulayliklari bo'lgan, avvalgisiga teng qimmatli boshqa turar joy mulk qilib beriladi hamda dov-daraxtlarning bozor qiymati to'lanadi yoxud buzilayotgan uy (kvartira), boshqa imoratlar, inshootlar va dov-daraxtlarning bozor qiymati, shuningdek yer uchastkasiga bo'lgan huquqning bozor qiymati to'liq hajmda to'lanadi. Buzilayotgan uyning (kvartiraning) yoki yer uchastkasiga bo'lgan huquqning bozor qiymati berilayotgan uy-joyning yoki yer uchastkasiga bo'lgan huquqning bozor qiymatidan ortiq bo'lgan taqdirda, bu farq mulkdorga kompensatsiya qilinishi lozim, berilayotgan uy-joyning yoki yer uchastkasiga bo'lgan huquqning bozor qiymati buzilayotgan uyning (kvartiraning) yoki yer uchastkasiga bo'lgan huquqning bozor qiymatidan ortiq bo'lgan taqdirda esa, ushbu farq mulkdor tomonidan qaytarilishi talab etilmasligi belgilanganligini ko'rishimiz mumkin.

Jumladan mazkur kafolatlar O'zbekiston Respublikasining "Er uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish tartib-taomillari to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3 avgustdagi "Fuqarolar va tadbirkorlik sub'ektlarining mulk huquqi kafolatlanishini so'zsiz ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi F-5491-sonli Farmoyishi hamda Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 26 dekabrdagi "Davlat va jamiyat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarining olib qo'yilishi munosabati bilan jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararlarni qoplash bo'yicha markazlashtirilgan jamg'armalar mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to'g'risida nizomni tasdiqlash haqida"gi 1047-son qaroriga muvofiq ravishda ta'minlash mexanizimi yaratildi.

Albatta, bunda muhtaram Prezidentimizning "Xalq rozi bo'lsa, ishimizda unum va baraka bo'ladi" - degan tamoilni hayotga tadbqiq etib, qonunchiligimizda fuqarolarning huquq va manfaatlarini kafolatlovchi normalar aks ettirilishidagi mehnatlari diqqatga sazovordir.

Shoxnur To'lqin o'g'li Cho'liboyev
Fuqarolik ishlari bo'yicha Zarbdor tumanlararo sudining devonxona mudiri